

O‘ZBEK SHEVALARI VA ULARNING ADABIY TIL RIVOJIDAGI O‘RNI

ATMU Ijtimoiy fanlar fakulteti

Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi 1-kurs talabasi

Norbòtayeva Marjona G‘olib qizi

Email: shaxriyorcholmurodov80@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur tadqiqot o‘zbek tili dialektal tizimining murakkab strukturasi va uning adabiy me’yorlar shakllanishidagi fundamental o‘rnini yoritadi. Maqolada qarluq, qipchoq va o‘g‘uz integratsiyasi, dialektizmlarning adabiy til leksik qatlamiga o‘tish mexanizmlari hamda badiiy nutqning estetik jozibasini oshirishdagi roli ilmiy tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: dialektologiya, lingvistik integratsiya, qarluq-chigil-uyg‘ur, o‘g‘uz lahjasi, qipchoq lahjasi, leksik transformatsiya, adabiy me’yor, xalq tili, fonetik o‘zgarishlar.

KIRISH. O‘zbek tili dunyodagi eng boy dialektal bazaga ega turkiy tillardan biridir. Adabiy til bu shevalar ustidagi umummilliy qurilma bo‘lib, aynan jonli xalq tilidan quvvat oladi. Shevalar adabiy til uchun milliy boylik vazifasini o‘taydi, qachonki adabiy tilda biror tushunchani ifodalash uchun so‘z, tushuncha yetishmasa, til darhol o‘zining ichki imkoniyatlari, ya’ni lahja yoki shevalarga murojaat qiladi.

O‘zbek shevalari tasnifi tilshunoslikda asosan fonetik va morfologik belgilarga ko‘ra amalga oshiriladi. Qarluq-chigil-uyg‘ur shevalari shaharliklarga xos shevalari bo‘lib, ular adabiy tiling negizi Toshkent va Farg‘ona shevalaridir. Qipchoq shevalari “J”-lovchi guruh hisoblanib, chorvachlik va tabiat terminlariga boy. (Qashqadaryo, Surxandaryo, Jizzax)

O‘g‘uz shevasida ohangdorlik va klassik poetikaga yaqinlik seziladi (Xorazm). O‘zbek lahjalari, ayniqsa qipchoq va o‘g‘uz lahjalari, VII-XI asrlarga oid qadimiy turkiy tilning ko‘plab unsurlarni “konservatsiya” qilgan (ya’ni o‘z holicha saqlab qolgan). Adabiy til rivojlanib, ayrim so‘zlar iste’moldan chiqib ketgan bo‘lsada, shevalarda ular hanuzgacha yashamoqda.

Abdulla Qahhor personaj xarakterini ochishda sheva elementlaridan juda ustalik bilan foydalangan. Uning asarlaridagi moshguruch, dahliz, hangoma kabi so‘zlar asarning hayotiyiligini ta’minlaydi. U “manim”, ”kopti” kabi shakllar orqali personajning ijtimoiy qiyofasini chizib bergan. Yozuvchi har bir qahramonning nutqidagi sheva elementlari orqali ko‘rsatgan. Adibning “Sinchalak” qissasida Saodat va uning atrofida gilar nutqida qishloq shevasiga xos samimiylik, ba’zan esa “o‘lashish” (vodiyliklarga xos fonetik xususiyat) sezilib turadi.

“Shoyi ro‘mol” qissasida esa qishloq odamlarining sodda, lekin hikmatli nutqida dialektal frazeologizmlardan juda o‘rinli foydalangan. Masalan, “etagini yopmoq” (aybini yashirmoq) yoki “o‘pkasini qo‘ltiqlab chopmoq” kabi iboralar aynan jonli xalq tilidan olingan.

Abdulla Qahhor o‘zbek shevalarini adabiy tilga “qon quyish” usulida olib kirdi. Uning tili sheva va adabiy tilning eng yuqori nuqtadagi sintezidir. Yozuvchi shevaga xos so‘zlar sifatida emas, balki milliy ruhni, o‘zbekona fe‘l-atvorni va personaj ichki dunyosini ochishning eng samarali vositasi sifatida isbotlab beradi.

Ko‘pgina sheva so‘zlari qadimiy ildizlarga ega. Masalan. “ina” (ona), “yovuq” (yaqin) so‘zlari Mahmud Qoshg‘ariy lug‘atlarida uchraydi. Bu shevalar tilni saqlash xususiyatini ko‘rsatadi. Xorazm shevasidagi “var” (bor), “ver” (ber) shakllari turkiy tillarning eng qadimiy qatlamiga borib taqaladi. Bu ham Mahmud Qoshg‘ariy tomonidan ham o‘g‘uz qabilalariga xos belgi sifatida qayd etilgan. Demak shevadagi bu buzulish aslida ming yillik an‘ananing davomidir.

Qadimiy fe‘l shakllari shevalarda saqlanib qolgan, ayrim fe‘llar adabiy tildagi muqobillaridan ko‘ra qadimiydir. “Sog‘inmoq” o‘rniga ba‘zi shevalarda “ansamog” ishlatiladi. Bu so‘z “eslamog”, “sog‘inmoq” ma‘nosida qadimiy bitiktoshlarda uchraydi. “Aytmoq” so‘zining “demak” shakli (masalalan ”dedi” o‘rniga “tidi”) qadimiy turkiy tildagi tovushlar tizimiga yaqinroqdir. “Ushbu” va “shu” ko‘rsatkich olmoshlari adabiy tilda rasmiy xarakterga ega bo‘lgan “ushbu” so‘zi, vodiy shevalarida kundalik nutqda faol ishlatiladi. Bu ko‘rsatish olmoshi qadimiy bu va ush (mana) elementlarining birikmasidan hosil bo‘lib shevada o‘zining asl ta‘kidlash funksiyasini yo‘qotmagan.

Adabiy tilda iste‘moldan chqib ketgan shevalarda saqlangan qadimiy so‘zlar (arxaizm) ko‘plab so‘zlar ma‘lum shevalarda o‘zining birlamchi ma‘nosini saqlab qolgan. Buni “leksik arxaizmlarning shevalardagi hayoti” deb atash mumkin. “Yorug” qadimiy turkiy tilda “nur”, “yorug‘lik” ma‘nosni bergan. Ayrim janubiy shevalarda bu so‘z hamon ishlatiladi. “Sut”, “sutli” ayrim shevalarda “oq” so‘zi o‘rniga qadimiyroq shakllar yoki rang bildirishning turkiy usullari saqlangan. “Ina”, “mana” yoki “mana bu” ma‘nosida ishlatiladigan bu so‘z qadimiy ko‘rsatish olmoshlarining qoldig‘idir.

MUHOKAMA. Sheva va adabiy til munosabatini o‘rganishda asosiy bahsli nuqta - shevaga xos elementlarni adabiy me‘yorga qabul qilish chegarasidir. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, faqatgina ma‘no doirasi keng va fonetik jihatdan “yumshoq” so‘zlarga adabiy tilda o‘rin topadi. Dialektizmlar badiiy uslubda (nasrda) ijobiy bo‘yoq bersa-da, rasmiy-idoraviy uslubda ulardan foydalanish tushunmovchlikka sabab bo‘lishi mumkin.

Adabiy tilning sun‘iy (yangi yasama so‘zlar) yo‘l bilan boyishidan ko‘ra, shevalardagi tayyor, xalq tomonidan asrlar davomida “sayqallangan” so‘zlarni qayta muomalaga kiritish lingvistik jihatdan samaraliroqdir.

NATIJALAR. Maqolada keltirilgan tahlillar quyidagi natijalarni ko'rsatadi.

Leksik boyishi jihatidan hozirgi o'zbek tili izohli lug'atidagi so'zlarning qariyb 12-15% qismi bevosita dialektal asosga ega ekanligi aniqlandi. Qarluq lahjasi adabiy tilning grammatikasini saqlab turgan bo'lsa, qipchoq va o'g'uz lahjalari uning leksikasini ta'minlamoqda. Bugungi kunda qishloq xo'jaligi, kasb-hunar leksikasi va milliy urf-odatlariga oid terminlarning deyarli 90% shevalardan ozuqa olmoqda.

XULOSA. Xulosa qilib aytganda, o'zbek shevalari milliy tilning bitmas-tuganmas boylik manbaidir. Muhokama va natijalar shuni tasdiqlaydiki, sheva-bu tilning o'tmishi emas, balki uning istiqbolidir. Adabiy til va shevalarning o'zaro muvozanatini saqlash, shevalardagi noyob durdonalarni o'z vaqtida lug'atlarga muhrlash o'zbek tilining dunyo tillari orasidagi nufuzini saqlab qolishning muhim omilidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. G'oziyev E. "O'zbekiston dialektologiyasi asoslari". Fan, - Toshkent, 2010.
2. Ne'matov H. "O'zbek tili tarixiy fonetikasi", Fan, - Toshkent, 1990.
3. To'ychiboyev B. "O'zbek dialektologiyasi" Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi, - Toshkent, 2002.
4. Abdulla Qahhor."Asarlar To'plami "G'afur G'ulom nomidagi "Adabiyot va san'at" nashriyoti, - Toshkent.
5. O'zbek tilining izohli lug'ati. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi", 5 jildlik, 2006